BO‘LAJAK MUSIQA TA’LIMI O‘QITUVCHILARINING GERMENEVTIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA TA`SIR ETUVCHI PEDAGOGIK PSIXOLOGIK OMILLAR TAVSIFI

Djalilova Dilnozaxon Obidjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarining germenevtik kompetentligini rivojlantirishga ta`sir etuvchi omillar va ularning pedagogik jarayonga ta`siri atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, uning bugungi kundagi zarurati hamda pedagogik dolzarbliligi, o‘qituvchilarining germenevtik kompetentligini rivojlantirish jarayoniga tayyorlashdagi ustuvor vazifalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog, kasbiy kompetentlik, klassifikatsiya, takomillashtirish, kompetensiya, germenevtik kompetentlik.

Kirish. Bugungi kundagi ta’limning rivojlanish bosqichida o‘qitish metodlari, vositalarini va tashkil etish shakllarini takomillashtirish zarurati yanada kuchaymoqda. Shuning uchun mutaxassislar tayyorlash, xususan, yangi davrga mos o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar yaratish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, o‘quv muassasalarini zamonaviy pedagogikkommunikatsiya vositalari bilan ta’minlash, ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Shu kesimda zamonaviy musiqa ta’limining keng qamrovli va chuqur ilmiy-metodik poydevorini ishlab chiqish jiddiy masalalardan bo‘lib qolmoqda. Professional musiqachi uchun germenevtik kompetentsiyani rivojlantirish alohida ahamiyatga ega bo`lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ta'lim standartlari nafaqat jarayonga, balki ta'lim natijalariga, kasbiy faoliyatga tayyor, jamiyatga moslasha oladigan va jamiyatga foyda keltira oladigan, o'zini qoniqtiradigan mutaxassis shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Kompetensiya masalalari A.V.Barannikov, E.A.Bystrova, V.A.Bolotov, V.P.Borisenkov, A.Daxin, G.S.Zavatskaya, I.A.Zimnyaya, G.A.Larionova, O.E.Lebedev, A.F.Prisajnaya, L.V.Savelyeva, G.Selevko, I.S.Sergeev, B.V.Serikov, M.A.Xolodnaya, A.V.Xutorskoy, T.I.Shamova, N.M.Shanskiy kabi tadqiqotchilar tomonidan o`rganilgan.

Natijalar va muhokama. Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarining germenevtik kompetentligini rivojlantirish jarayoniga tayyorlashda ustuvor vazifa sifatida quyidagilarga e`tibor berish lozim:

1. Refleksiya omili (lotin tilidan relatio - xabar) madaniyatni (ta’lim, professiogramma, fuqarolik fazilatlari darajasida va boshqalar) ijtimoiylashtirish va pedagogik faoliyatga kirish jarayonida orttirilgan muayyan vaziyatlarni o‘quvchilar tomonidan rivojlantirishga qaratilgan.

2. Regulyativ omil (lot. Regulare- tartibga solish, yo‘nalish berish) xattiharakatlarning muayyan standartlarini ishlab chiqishga va musiqa fanida o‘quvchilarining xatti-harakatlari hamda ishlarini ijtimoiy nazorat qilishga qaratilgan.

3. Aksiologik omil (yunoncha axios - qimmatli) har qanday ijtimoiy institutda uning barcha a’zolari yoki ularning aksariyati baham ko‘radigan asosiy qadriyatlar tizimining mavjudligi bilan bog‘liq.

4. Integratsion omil (lot. integer - yaxlit) pedagogik faoliyat maqsadlari va natijalari uchun nafaqat alohida ijtimoiy institutning muvaffaqiyatli ishlashi, balki butun jamiyat manfaatlari ustuvor bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi.

5. Rivojlantirish omili pedagogik bilim va ko‘nikmalarni ta’minlabgina qolmay, balki shaxsiyatni rivojlantiradigan, uni mustaqil ijodiy hayotga, haqiqiy o‘zini o‘zi anglashga tayyorlaydigan «inson instituti» turidir. Ta’lim bosqichlarida inson rivojlanishining asosiy mezonlari aql va ijodiy fikrlash, o‘z-

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

o‘zini anglash va rivojlantirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish tushunchasi zarur, jumladan, hissiy-irodali va motivatsion-ehtiyoj jihatlarni tashkil qilish ahamiyatli.

6. Dunyoqarash omili - o‘quvchilarning zamonaviy yutuqlarga mos keladigan yaxlit dunyoqarashi va munosabatini shakllantirish (fundamental fanlar). Shunday qilib, musiqa fanida o‘quvchilarda kompetentlikni rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi:

motivatsiya – o‘quvchilarning ijtimoiy pedagogik faoliyatning maqsadi, mazmunini anglashlari.

qiziqish – o‘quvchining hayotning ijtimoiy sohasidagi zarur faoliyat va munosabat jarayoniga va uning samarasiga qiziqishning ortishi.

egallash – o‘quvchilarda germenevtik kompetentlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimini oshirish.

o‘z-o‘zini nazorat qilish – olingan natijalar tahlili va ularni kutilganlari bilan qiyoslashga o‘rgatish.

Musiqa ta’limi o‘qituvchilarining germenevtik kompetentligini rivojlantirish zaruratini quyidagicha asoslash mumkin:

Birinchidan, musiqa ta’limi o‘qituvchilarining germenevtik kompetentligini ko‘nikmalari aosida ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirish mumkin bo‘ladi. Shaxsning ijtimoiy faol sifatlarga ega bo‘lishi murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, unda umuminsoniy, milliy, ijtimoiy, gender(erkak va ayol), sotsiotipik va individual rivojlanishi birlashadi. Ushbu farqlarning moxiyati va tabiati, jinsiy ong faqat boshqa odamlar bilan muloqot, ijtimoiylashuv hamda tarbiya ta’sirida shakllanadi.

Ikkinchidan, musiqa ta’limi o‘qituvchilarining germenevtik kompetentligini rivojlantirish asosida ta’limga tezroq adaptatsiyalash va intellektual faollikka erishish mumkin bo‘ladi. Bugungi kunda musiqa ta’limi o‘qituvchilarini tez fursatda ta’limga adaptatsiya qilish asosida samarador ta’limni tashkil qilishning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir. Adaptatsiya (lot. adaptatio — moslashuv) – organizmning, masalan, sezgi a’zolarining atrof-muhit sharoitlariga moslashishi, ko‘nikishi [3]. Boshqacha aytganda, organizmning tashqi muhit bilan adekvat aloqalari shakllanishi xususiyatidir. Bola tug‘ma yurish-turish shakllariga ega emas va u ijtimoiy muhitda rivojlana borib uch asosiy komponentni: hudud (narsa-predmetlar, ulardan foydalanish vositalari), vaqt (kundalik tartib) va muomala shakllarini o‘zlashtiradi. Demak, bola tug‘ilishdanoq uning faolligi «bola-kattalar» munosabatlari ichida tartibga solinadi. Maktabda bo‘lsa, ta’lim sharoitida maktab hududi, o‘quv-bilish faoliyati va yangi tartib qoidalarga moslashib boradi.

Demak, musiqa fanida o‘quvchilarni ta’limga adaptatsiyalash asosida ularlarning tashabbuskorligi, mustaqilligiga asoslangan, tafakkuriga mo‘ljallanib, mustaqil fikrlash va ongi rivojlanishiga yo‘nalgan, natijasi shaxsiy faoliyat mahsuli sifatida shakllanadigan, istiqbolda barkamol inson shaxsini rivojlantiradigan ta’limini tashkil etish va ta’lim samaradorligini oshirish hsiobalandi.

Uchinchidan, musiqa fanida o‘quvchilarda kompetentlikni rivojlantirish asosida o‘quv-bilish jarayoni samaradorligini ta’minlash mumkin bo‘ladi. Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish asosida maktab o‘quvchilarining bilish faolligini, tafakkurini, fikrlash tarzini va dunyoqarashini o‘stirishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ular ichida aynan ta’lim bosqichidagi o‘quvchilarning bilish faolligi asoslari, matematik tafakkuri, hisoblash tezkorligi, atrof-muhit va olam haqidani bilimlari, dunyoqaragshi, voqea-hodisalarga munosabati asosidagi fikrlash tarzi, ongli munosabatini shakllantirishga oid salmoqli ishlar ham amalga oshirilgan [2]. Ularda erishilgan natijalar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkur qamrovini yuksaltirishda muhim didaktik asos bo‘lib, ular orqali ta’lim mazmunini zamonaviy talablar asosida shakllantirishga erishilmoqda.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlariga, gaplashishlariga, muomala qilish ehtiyojiga loqaydlik bilan qaramasligi kerak. U suhbatlashish uchun sinf jamoasi bilan ham har bir o‘quvchi bilan gaplashish uchun hamisha vaqt topishi lozim. Chunki, ayniqsa, o‘quvchilar o‘qituvchining o‘zlariga munosabatini hamisha aniq his qiladilar, sezgirlik bilan munosabatda bo‘ladilar. Ular o‘z vazifasini kundalik uy vazifalarini bajarish yuzasidan topshiriqlar berishdangina iborat qilib qo‘yadigan o‘qituvchi bilan o‘z fikrlarini, taassurotini hech qachon o‘rtoqlashmaydilar. Bu esa, sinfda olib boriladigan ma’naviyma’rifiy ishlar samarasiga zarar yetkazadi.

O‘quvchilar o‘z o‘qituvchisini yaqin do‘st, sirdosh, ular bilan bir xil qiziqishlarga ega, ahil ishlay, yashay oladigan murabbiy deb bilishlari kerak. Ayniqsa, qiz bolalar nohaqlikka nisbatan juda sezgir bo‘ladilar. Qiz bolalarga nisbatan qilingan qo‘pollik, adolatsizlik ularning xarakterida salbiy sifatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun o‘quvchilarda xarakterni tarbiyalashning eng asosiy shartlaridan biri - talablarning aniqligi hamda bolaning o‘z kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchdir.

Xulosa. Har bir yangi avlod moddiy va ma’naviy madaniyat negizini har gal yangitdan yaratmaydi, balki o‘tmish avlodlar tomonidan yaratilgan mavjud madaniy boyliklarga tayanadi. Tarixiy vorislik kishilik jamiyati, jumladan, madaniyati taraqqiyotining zaruriy shartidir. Madaniyat boyliklari jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida uning extiyojlari tufayli yuzaga kelib va mazkur jamiyat hayotini aks ettirib, shu jamiyat bilan birga yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki o‘z davrini o‘tab, keyingi avlodlar uchun madaniy meros bo‘lib qoladi. Ushbu meros yoshlarimiz ma’naviyatini shakllantirishda, ularni har tomonlama komil inson qilib voyaga yetkazishda salmoqli ruhiy va ma’naviy oziq bera oladigan g‘oyaviy va hissiy tarbiya vositasi sifatida xizmat qilishi, hamda barcha ijodkorlarimiz uchun ilxom manbai bo‘lib qolishiga hech shubxa yo‘qdir. Germenevtik kompetensiyani shakllantirish bir martalik va hatto bir semestrlik jarayon emas, u universitetdagi butun o'qish davomida doimiy bo'lishi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Закирова А.Ф. Теоретические основы педагогической герменевтики: монография / А.Ф.Закирова. - Тюмень: Тюменский государственный университет, 2001. - 152 с.
2. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования / И.А.Зимняя / / Высшее образование сегодня. - 2003. - № 5. - С. 3 4 -4 2.
3. Ларионова Г.А. Компетенции в профессиональной подготовке студентов вуза: монография / Г.А.Ларионова. - Челябинск, 2004. - 528 с.
4. Селевко Г. Компетентности и их классификация / Г.Селевко // Народное образование. - 2004. - № 4 - С. 138-143.
5. Фомичёва И.Г. Философия образования: некоторые подходы к проблеме / И.Г.Фомичёва. - Н овосибирск: Изд-во СО РАН, 2004. - 242 с.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.